

MAMLAKATIMIZDA SANOAT SOHASIDA AMLAGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLARNING NATIJALARI VA BU JARAYONDA VUJUDGA KELGAN MUAMMOLAR

Nomozov Mamarajab Toshtemir o'g'li

Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 53-maktab Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston sanoat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning iqtisodiy samaralari hamda sanoatni modernizatsiya qilish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar ilmiy tahlil qilinadi. Islohotlarning samaradorligi, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari, eksport salohiyatini oshirish, raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, kadrlar yetishmovchiligi, energetika resurslariga talabning ortishi, ekologik muammolar va tashqi bozorlardagi raqobat kabi dolzarb masalalar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sanoat islohotlari, modernizatsiya, eksport, innovatsiya, raqamlashtirish, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье будет проведен научный анализ проводимых реформ в промышленной сфере Узбекистана, их экономических последствий и проблем, возникающих в процессе модернизации промышленности. Освещаются вопросы эффективности реформ, показатели экономического роста, наращивания экспортного потенциала, цифровизации и внедрения инновационных технологий. Наряду с этим будут рассмотрены такие актуальные вопросы, как нехватка кадров, повышенный спрос на энергоресурсы, экологические проблемы и конкуренция на внешних рынках.

Ключевые слова: промышленная реформа, модернизация, экспорт, инновации, цифровизация, экономическое развитие.

Abstract: This article will provide a scientific analysis of the ongoing reforms in the industrial sector of Uzbekistan, their economic consequences and problems arising in the process of industrial modernization. The issues of the effectiveness of reforms, indicators of economic growth, increasing export potential, digitalization and the introduction of innovative technologies are highlighted. Along with this, topical issues such as staff shortages, increased demand for energy resources, environmental problems and competition in foreign markets will be considered.

Keywords: industrial reform, modernization, export, innovation, digitalization, economic development.

KIRISH



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va sanoatni rivojlantirish bo'yicha qator chuqur islohotlar amalga oshirildi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YAIM) o'sishi 2024-yil yakuniga kelib o'rtacha 5,3 % ni tashkil etgan bo'lib, bu Markaziy Osiyo davlatlari ichida yuqori ko'rsatkichlardan biridir [1]. Sanoat ishlab chiqarish hajmi esa 2024-yilda 885,8 trillion so'mga yetib, 2023-yilga nisbatan 6,8 % ga o'sdi [2].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat bo'yicha 55,6 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda, ularning 19,2 %i Toshkent shahrida, 11,2 %i Toshkent viloyatida joylashgan bo'lib, bu hududlarning sanoatlashuv markazlari sifatida shakllanayotganidan dalolat beradi [2]. Ishlov beruvchi sanoat sektori umumiy ishlab chiqarishning 85,1 % ini tashkil etib, 753,6 trillion so'm hajmida mahsulot yetishtirgan [2].

Shu bilan birga, xalqaro reytinglarga ko'ra, mamlakat hali ham iqtisodiy erkinlik va shaffoflik borasida muammolarga duch kelmoqda. Transparency International'ning 2024-yilgi korrupsiya indeksida O'zbekiston 180 mamlakat ichida 121-o'rinni egalladi [3]. Bu esa sanoat sohasidagi islohotlar jarayonida samaradorlikni oshirish uchun institutsional o'zgarishlar talab qilinishini ko'rsatadi.

Kelgusi yillarga oid bashoratlarga ko'ra, 2025–2028-yillarda O'zbekiston sanoati yillik 7–8 % atrofida o'sish sur'atini saqlab qolishi mumkin. Energetika sohasida esa 2030-yilgacha elektr energiyasining 40 % qayta tiklanuvchi manbalardan ishlab chiqarilishi rejalashtirilmoqda [4]. Shuningdek, davlat korxonalarini xususiylashtirish va xususiy sektor ulushini YAIMdagi 85 % gacha yetkazish strategiyasi iqtisodiy o'sishni yanada tezlashtirishi prognoz qilinmoqda [5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat sohasini rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o'rnining nihoyat darajada zarurligi bilan doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Ushbu masala mavzu yuzasidan xorijlik olimlardan Y.Rodionov, R.S.Porter, D. Deveryuks, B.Roberts, R.N. Nureyevlar ilmiy yangiliklar yaratgan bo'lsalar, mahalliy olimlardan Y.A.Abdullayev, A.Abdurahimov, U.Muxitdinov, A.A. Ortiqov, X.Ishbutayeva, Sh.Nizomova, E.X.Maxmudov, M.Isoqovlar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishga erishgan.

Xususan, A.Artikov "O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari"ga [6], M.P.Narziqulov "Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e'tibor tarkibiy o'zgarishlarga qaratilganligi"ga [7],

E.X.Maxmudov "Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo'nalishlari birinchi navbatda budjet, soliq, pul kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish"ga [8] bog'liqliklariga alohida to'xtalib o'tishgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usul- lardan keng foydalanildi.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar natijasiga ko'ra, 2017-yilda yal-pi ichki mahsulot tarkibida sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) ulushi 33,5 foizni tashkil etgani [8] va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida bu haqida to'xtalib [2], "... hisobot yilida ham mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida mutanosiblikka erishilgani, modernizatsiya hamda diversifikatsiya tufayli yuqori sur'atlar ta'minlanganini alohida qayd etgani buning yaqqol tasdig'idir.

Ya'ni, ... mamlakatimizda qisqa muddatda 161 ta yirik sanoat obyekti ishga tushirildi. Bu biz uchun kelgusi yilda qo'shimcha 1,5 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Masalan, Toshkent issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz qurilmasi barpo etildi. Bu esa qo'shimcha ravishda 2,5 milliard kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi.

Shuningdek, Navoiy issiqlik elektr stansiyasida ikkinchi bug'-gaz qurilmasi, Qizilqum bag'ridagi Avminzo-Amantoy oltin konlari negizida gidrometallurgiya zavodi qurish bo'yicha ishlar davom etmoqda. Hozirgi vaqtda Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tomonidan "Yoshlik - 1", "Yoshlik - 2" konlarini o'zlashtirishga kirishildi. Sardoba, Markaziy Farg'ona va To'palang suv omborlarini qurish bo'yicha ishlar jadal olib borilmoqda. Bu yirik inshootlar ham, hech shubhasiz, mamlakatimiz iqtisodiy hayotida muhim voqea bo'ladi. Farg'ona - Marg'ilon yo'nalishidagi temir yo'l tarmog'i ayni paytda elektrlashtirilmoqda. Yana bir yirik obyekt - Qandim gazni qayta ishlash kompleksi ishga tushirilishi hisobidan 2018 yilda qo'shimcha ravishda 4 milliard 100 million kub metr tabiiy gazni qayta ishlash, 67 ming tonnadan ziyod kondensat, 106 ming tonnadan ortiq oltingugurt ishlab chiqarish imkoni yaratiladi.

O'zbekiston iqtisodiyoti- ning lokomotivlaridan biri bo'lgan Muborak gazni qayta ishlash zavodida kelgusi yili qo'shimcha ravishda 6 milliard kub metr tabiiy gazni oltingugurtdan tozalaydigan blok- lar to'liq faoliyat boshlaydi. Shular qatorida "O'zagrotexsanoatxolding" aksiyadorlik jami- yatida yangi yilda 5 mingdan ko'proq zamonaviy traktorlar, mingdan ziyod paxta terish mashinasi va 2 mingdan ortiq pritseplar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi" [2].

Bunday yuqori ko'rsatkichlar chuqur o'ylangan va puxta tahlillar asosida ishlab chiqilgan, bir-biri bilan uzviy bog'liq strategik dasturlar ijrosining samarasidir. Aytish mum- kinki, 2017-2021 yillarda sanoatni yuksak darajada rivojlantirish dasturi hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dastur- larining izchil ijrosi barcha tarmoqlar faoliyatida qo'shimcha qiymatga ega



raqobatbardosh mahsulotlarni tayyorlashda yangi sahifalar ochmoqda. Ayni vaqtda sanoat mahsulotlarining qariyb 80 foizi ularning hissasiga to'g'ri kelayotgani bunga asos bo'ladi [1].

2025-yil birinchi yarim yilligi yakunlariga ko'ra, O'zbekiston milliy iqtisodiy faolligi 6,7–6,8 % o'sish bilan qayd etildi; jumladan, sanoat ishlab chiqarish 6,3 %, xizmat ko'rsatish sektori 13,5 %, qishloq xo'jaligi 4,0 %, qurilish 9,7 % darajasida mustahkam o'sdi [6]. Mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM) bo'yicha prognoz 2025-yil uchun 6,7 %, 2026-yilda 6,8 % atrofida saqlanib qolishi kutilmoqda [6].

2025-yil yanvar oyida sanoat mahsulotlari hajmi 55,8 trillion so'mga yetdi, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,3 % o'sishni ko'rsatadi; shuningdek, ishlab chiqarish hajmining o'sishini ifodalovchi indeks ko'rsatkichi 104,3 ni tashkil etdi [7]. Ushbu tendensiya dekabrgacha davom etishi prognozlanmoqda, shuningdek 2022–2030-yillar oralig'ida sanoat ishlab chiqarish hajmining deyarli ikki baravar ko'payishi ehtimoli yuqori [8].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston 2030-yilgacha energiya kompleksini diversifikatsiya qilish yo'lida muhim qadamlar qo'ymoqda. Jumladan, quyosh energiyasi bo'yicha 4 GW, shamol energetikasi bo'yicha esa ham 4 GW quvvatga ega ob'ektlar 2026-yilgacha ishga tushiriladi; 2030-yilga kelib esa bu ko'rsatkichlar mos ravishda 7 GW (quyosh) va 5 GW (shamol) darajasiga yetishi ehtimoldir [9]. Elektr energiyasining qayta tiklanuvchi manbalardan ishlab chiqarilishi ulushi esa 40 % darajasida rejalashtirilmoqda [10]. Shu bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish doirasida CO₂ emissiyasini 34 million tonnaga kamaytirish ko'zda tutilmoqda [11].

Yetakchi tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoat rivojlanishi va elektr transportga o'tish natijasida elektr energiyasiga bo'lgan talab sezilarli darajada oshadi. Masalan, 2022–2030-yillar davrida elektr energiyasi iste'moli +52 % (122,7 TWh), 2035-yilga kelib esa +87 % (151,5 TWh) darajasida bo'lishi mumkin. Cho'qqi yuk talabi esa 2022-yildagiga nisbatan 19,2 GW gacha ko'tariladi [11].

Prezidentning tashabbusi bilan ish boshlagan loyihalarga ko'ra, 2027-yilgacha 4,7 million tonna qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash orqali 2,1 milliard kVt•soat elektr energiyasi ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda [12]. Ushbu loyiha mamlakat yillik elektr energiyasi ishlab chiqarishining sezilarli qismini (70 milliard kVt•soat) tashkil etadi.

- Sanoat ishlab chiqarish: Agar investitsiya va islohotlar samaradorligi yuqori bo'lsa, 2025–2028-yillarda o'sish sur'ati yillik 7–8 % oralig'ida bo'lishi taxmin qilinadi.

- Energiya iste'moli: 2030-yilgacha elektr energiyasi talabining +50–60 % ga oshishi, cho'qqi yuk ehtiyojining esa 19–20 GW ga yetishi kutilmoqda [11].

- Qayta tiklanuvchi energiya hajmi: 2030-yilgacha bu sohadagi quvvatlar 10–12 GW ga yetishi, va qayta tiklanuvchilardan olinadigan energiya ulushi 40 % atrofida barqarorlanishi prognoz qilinadi [12].



- Chiqindilardan energiya olish: 2027-yilgacha 2,1 milliard kVt•soat qo'shimcha energiya ishlab chiqarish orqali milliy energiya balansini diversifikatsiya qilish rejalashtirilgan.

XULOSA

O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichi chuqur tahlil etilganda, sanoat ishlab chiqarishning barqaror o'sishi, energetika sohasidagi tub islohotlar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi va barqaror rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2025–2030-yillar oralig'ida O'zbekiston YAIM o'sish sur'ati yillik 6,5–7 % darajasida saqlanib qolishi mumkin, sanoat ishlab chiqarishi esa deyarli ikki baravar kengayishi ehtimoldir.

Energetika sohasida esa elektr energiyasiga bo'lgan talabning jadal ortishi, qayta tiklanuvchi manbalarning ulushini oshirish zarurati va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari milliy siyosatning ustuvor yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi manbalar ulushi 40 %, elektr energiyasi iste'moli esa 2022-yildagiga nisbatan qariyb 1,5 baravarga oshishi prognoz qilinmoqda.

Shu nuqtai nazardan, sanoat va energetika sohalarida izchil islohotlar, investitsion jozibadorlikni oshirish, ilmiy-texnologik yangiliklarni keng joriy etish va resurslardan samarali foydalanish O'zbekistonni mintaqaviy va xalqaro miqyosda raqobatbardosh davlatga aylantirishga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasiga asoslangan rivojlanish strategiyasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik barqarorlikni ham ta'minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World Bank. Uzbekistan Economic Update. – Washington, 2024.
2. Invexi. Results of Uzbekistan's industrial production in 2024: growth, new opportunities and challenges. – Tashkent, 2025. – URL: <https://invexi.org/uz/press/results-of-uzbekistan-s-industrial-production-in-2024-growth-new-opportunities-and-challenges/> (murojaat sanasi: 04.09.2025).
3. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2024. – Berlin, 2025.
4. Energy in Uzbekistan. – Wikipedia. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Energy_in_Uzbekistan (murojaat sanasi: 04.09.2025).
5. Uzbekistan to privatize major state-owned enterprises. – Financial Times. – London, 2024. – URL: <https://www.ft.com/content/e5348220-9fbc-4f89-b4e5-856ad6571564> (murojaat sanasi: 04.09.2025).
6. A.Ortikov. Sanoat iqtisodi. Darslik. T.: TDIU, 2009. 236 b.





7. Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы IV-го Форума экономистов / отв. ред. М.П. Нарзикулов. Ташкент. Вақтларгез, 2012. С. 8.

8. E.X. Maxmudov, A. Ortikov, F. Karimov. Korxona iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini. / Hamkor. 2010 yil 7 fevral.

9. CERR Economics Uzbekistan. Uzbekistan's economy projected to grow by 6.7% in H1 2025. – Tashkent, 2025.

10. German Economic Team. Uzbekistan's electricity demand forecasting: an outlook until 2035. – Berlin, 2025.

11. INVEXI. Industrial production in Uzbekistan – January 2025 results. – Tashkent, 2025.

12. IEA. Solar energy roadmap for Uzbekistan by 2030. – Paris, 2022.

13. President's Office of the Republic of Uzbekistan. Uzbekistan announces \$1.3 billion in waste-to-energy projects. – Tashkent, 2024.

14. Uzbekistan Senate. Renewable energy capacity and electricity generation targets by 2030. – Tashkent, 2024.

